

IMOM AL-BUXORIY HAYOTI VA ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYANING ROLI

Asatova Yulduz Asatovna

*Olmalik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi tarix fani
o'qtuvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Imom Al-Buxoriyning hayoti va ijodiy yo'li, hamda asarlarida axloqiy tarbiyaning o'rni xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Sahiyh al-Buxoriy, aqliy tarbiya, axloqiy mexonlar, Islom dini, "Al- kutub as- sitta "*

Mustaqilligimiz keltirgan buyuk ne'matlardan biri - turfa ma'naviy qadryatlarimiz, ko'hna va boy tariximiz, madaniy merosimizga munosabatning tubdan o'zgarib, uzoq moziyda yashab abadiy barhayot asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini chuqur o'rganish hamda ulardan keng xalq ommasini bahramand qilish, desak hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Bu yo'nalishda tarixan qisqa muddat ichida amalga oshirilgan. Respublikamizda diniy ilmlarga katta e'tibor berilayotgani, Qur'oni Karimning hamda Janob Payg'ambarimiz alayhissalomning muborak hadislarining o'zbek tiliga tarjima qilinib keng ko'lamda o'rganilayotgani, ularning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotimizga tobora singib borayotgani buning yorqin dalilidir.¹

Ma'lumki, movarounnahr hamda xurosonlik ko'plab olimlar jahon ilm-fani va madaniyatining ravnaqiga ulkan hissa qo'shganlar. Bu hususida birinchi

Prezidentimiz I.A.Karimov: "Qadimgi Movarounnahr va Xuroson farzandlarining jahon ilmu ziyosi tarixiga zarvaraqlar ila bitilgan asarlari oz emas" - deb alohida ta'kidlagan edilar.

Payg'ambarimiz alayhissalomning hadislarini to'plash, ularning sahihlarini ajratib, Qur'oni Karim oyatlari bilan isbotlash borasida Movarounnahr va Xuroson olimlarining hissalarini benihoyat katta bo'lgan. Chunonchi, Movarounnahr farzandlari

- oltita mashhur muhaddis yaratgan asarlar "Sihoh sitta", "Olti kitob", "Kutubi sitta" kabi nomlar bilan ataladigan asarlar shular jumlasidandir.

Diyorimizdan chiqqan buyuk alloma Imom al-Buxoriyning hadislarga bag'ishlangan to'rt jilddan iborat "Sahiyh al-Buxoriy"asari butun islom olamida haqli ravishda Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi.

Hadislarni to'plash, zamon talabiga ko'ra, ayniqsa milodiy VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab g'oyatda taraqqiy etib, hadis ilmi bilan shug'ullanish eng fahrlil va ma'suliyatli mashg'ulotga aylangan. Manbalarda keltirishicha, VIII asrning

¹ U.Uvatov, Buyuk muhaddis,O'zbekiston milliy enskilopediyasi davlat ilmiy nashiryoti .Toshkent 1998

o'rtalaridan XV asrning o'rtalarigacha hadis ilmi bilan Sharqning turli mamlakatlarida mingdan ziyod muallif shug'ullangan.

Bundan o'n uch yil muqaddam O'zbekistonda qaror topa boshlagan ijtimoiy adolat, ayniksa, mustaqilligimiz sharofati tufayli tariximiz, ma'naviy qadriyatlarimiz, boy va ko'xna madaniy merosimizga munosabat keskin o'zgardi. Uzoq moziyda yashab, o'lmas asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarimizning hayoti va izjodlarini chuqur o'rganib, ulardan keng xalq ommasini bahramand qilish uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan ushbu tarixiy jarayonlar silsilasida muborak dinimizga bo'lgan munosabatning batamom o'zgarganligini alohida ta'kidlash lozim. Azaldan umuminsoniy qadriyatlar, madaniyat va ma'rifatning mustahkam poydevori sanalgan diniy ilmlar majmuasiga e'tibor, Qur'oni karimni o'zbek tilida nashr etilishi, Janob Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning muborak hadislariga oid kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilinib, keng ko'lamda o'rganilib, ijtimoiy va madaniy hayotimizga tobora singib borishi har qanday tahsinga sazovardir. Jumladan, ilm-fanning ravnaqi yo'lida olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yaratib ketgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddun Kubro, Bahovuddin Naqshband, Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'iloniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi ko'plab buyuk zotlarning hayotlari va meroslarini o'rganish borasidagi tarixiy ahamiyatga molik ibratli tadbirlar amalga oshirilib diqqatga sazovor ko'plab ishlar qilindi². Shu jumladan Imom al-Buxoriyga to'xtaladigan bo'lsak, Imom Buxoriy - butun musulmon olamida nomi mashhur bo'lgan hadisshunos olimlardan biri. «Buxoriy» so'zi u zot Buxoro shahrida tug'ilganliklaridan dalolat beradi.

Olimning asl ismlari Muhammad, otalarining ismlari Ismoil. Kunyalari (zotlari) va nisbalari (tug'ilgan joylari) bilan birga to'liq ismlari - Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriydir.

Imom Buxoriy taniqli muhaddis olim Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'ira oilasida tug'ildilar. O'n yoshidan boshlab hadislarini yod o'la boshladilar. Yetmish mingdan ziyod hadisni yod bilgan Muhammad o'n olti yoshlarida onalari hamda akalari bilan muborak haj safariga o'tlanadilar. Ularning uzoq yillik safarlari shu tariqa boshlanadi. Haj amalini ado etgan Muhammad onalari bilan akalarini Buxoroga qaytarib yuborib, o'zlari hadis to'plash niyatida olis yurtlarga rihlat qildilar (rihlat - hadis to'plash niyatida safarga chiqish). Ko'p yillar davom etgan safarlar chog'ida Imom Buxoriy O'rta va Yaqin Sharqning juda ko'p mamlakatlarida, Makka, Madina, Toif, Jidda singari tabarruk shaharlarda, Basra, Kufa, Bag'dod kabi ilm markazlarida boldilar. Ko'plab ustozlardan ta'lim oldilar, minglab shogirdlarga ustozlik qildilar.

² U.Uvatov.Muhaddislar imomi.-T.: "Ma'naviyat",1998 6 bet

Bu safarlar chog'ida ul zot olti yuz mingdan ziyod hadis to'plab, ularni to'g'ri va noto'g'ri, ishonchli va ishonchsiz hadislarga ajratdilar. Shulardan yetti mingdan ziyod eng ishonchli hadisni tanlab olib, «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli hadislar to'plami»)ga jamlaganlar. «Sahih al-Buxoriy» deb ham ataladigan bu to'plam musulmon olamida mashhur olti ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir. O'zbek tilida bu to'plam to'rt jildda nashr etildi. Hijriy III asr hadisshunoslikning oltin davri hisoblanadi. Bu asrda hadislar aytish mumkin-ki, ilmiy ravishda to'planib, tadvin qilinib, muayyan qonun-qoidalarga asosan tartibga tushirilgan. Ayanan mana shu asrda hadisshunoslik mustaqil ilm sifatida fiqh ilmi masalalaridan ajralib chiqdi. O'z navabatida hadis ilmidan boshqa bir talay ilmlar ham ajralib, bo'linib ketdi. Hijriy III asr hadisshunoslikning mustahkam asosga ega bo'lib, qudratli ilm sifatida qaror topishda muhim o'rin tutadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hadislar ommaviy ravishda hayotiy ehtiyojiga aylanib, ijtimoiy hayotning turli sohalarga jadal kira boshlaydi, hadislarga tayanib ish tutish odat tusini oldi. Hadischilik borasidagi bunday uyg'onish yoki yuksalish davri ayni chog'da bir talay muomolarni ham yuzaga keltiradi. Ulardan yangi asosiysi-hadislarning to'g'ri yoki noqisigi, ularning roviysi manbasiga e'tibor bermasdan hayotga tatbiq qilish masalasi jamiyatda jiddiy muomolarni yuzaga keltiradi.³

Mana shunday sharoitda buyuk ulamolardan biri guruhi hadislarni buzmasdan asl holda qo'llash borasida turli tuman takliflaru tavsiyalarini o'rtaga tashladilar, ularni saralash masalasida har xil uslub va tomoshalardan foydalanish yo'llarini izlay boshladilar. Yozuv qurollari ko'payib, kitobchilik yetarli sharoit vijudga kelgach arab va musulmon dunyosi boshqa elatlaru millatlari bilan aloqa o'rnatib, ma'rifiy tajribasi ortgach hadislarga doir maxsus kitoblar yaratish ishlari ancha yurishdi. Oldingi asrlarda kuzatilganidek, Rasululloh hadislarni sahobalarning qavllari, yoki tobe'iyinlar chiqargan fatvolari bilan aralashtirib yuborish hollariga chek qo'yilib, faqat payg'ambar alayhissalom hikmatlaridan iborat bo'lgan kitoblarnin ta'lif etishga kirishildi. Hadislar yuzasidan ta'lif etilgan asarlarni puxta tadqiq etish jarayonida, asosan, quyidagi 4 qoidaga amal qilinganini ko'ramiz:

Musnadlariga tayanib ta'lif etish. Bu usul shundan iboratki, sahobalardan har birining payg'ambar haqida aytgan hadislarini, to'grimi yoki noto'grimi - bundan qattiy nazar, to'planib, garzand mavzulari xilma-xil bo'lsada, alohida kitob shaklida ta'lif etiladi. Masalan bir hadisning musnadi sifatida avval Abu Bakrga tayanib rivoyat qilinadi. Undan keyin birin ketin sahobalarning nomlari zikr qilinadi. Mana shu tartibda mustaqil kitob ta'lif qilinadi, bu borada, shuningdek, boshqa usullar qo'llanilgan holler ham ko'zga tashlanadi.

Hijriy III asrning boshlarida Ubaydulloh ibn Muso al-Abasiy al-Kufiy, Musaddad ibn Musarxad al-Basriy kabi olimlar shu zaylda asarlar tasnif etgan

³ U.Uvatov.Muhaddislar imomi.-T.: "Ma'naviyat",1998 6 bet

bo'lsalar, keyinchalik ularga ergashib, Ahmad ibn Hanbal, Ishaq ibn Rohvayh va boshqalar ham asarlar yaratgan.

Ibn Hajar al-Asqaloniyni yozishicha, Muslim ibn al- Hajjoj sahobalar aytgan ma'lumotlarga tayanib, kattagina bir musnad yaratgan bo'lsa-da, afsuski, uni tugatolmagan⁴

1. Boblarga bo'lib ta'lif etish. Bu usul bo'yicha hadislariga ularning mavzuyi va boblariga qarab tartib berilgan. Masalan keltirilayotgan hadis namozga oid bo'lsa; assalot bobida, zakotga doir bo'lsa; az-zakot bobida zikr qilingan. Bu usulda dastlab hijriy II asrda Molik ibn Anas mashhur "Al-Muvvato" asrini yaratgan. Hijriy III asrda yashagan Imom Buxoriy va Imom Muslim ibn al- Hajjoj o'zlarining "As-Sahih" asarlarini ham ushbu uslubda tasnif etganlar. Ul zotning yo'lini tutgan talay olimlar ham shu usulda asar yaratganlar. Aynan shu zaylda, ya'ni, boblar asosida tasnif etib asarga tartib berganlar. Zikr etganimiz ikki buyuk muhaddis Imom al Buxoriy va Imom Muslim ibn al Hajjoj hazratlaridir. Ushbu uslubga rioya qilmay, hadislar bo'yicha asarlar yaratgan muhaddislar sirasiga "Al- kutub as- sitta" ning muallifi bo'lgan Abu Dovud, At- Termiziy, An-Naso'iy, va Ibn Mo'jja ham kiradi

2. Mazkur ikki uslub birlashgan hollar, ushbu tariqatning sohibi Baqiy ibn Mahlad al-Qurotobiylar bo'lib, ul zot "Al-Musnad al-Kabir" asarida avval sahobalarning ismlariga tartib berib, so'ngra fiqh boblariga bo'lgan holda musnad tasnif etganlar.

3. Nuqsonlarga tayanib tasnif etish. Bu tariqat eng oily maqomdagi uslub hisoblanadiki, unda har bir hadisni to'plash jarayonidagi yo'l-yo'riqlar va uning roviylariga nisbatan ihtiloflar ham ko'rsatilgan bo'ladi. Zero, hadisdagi nuqsonlarni aniqlash ushbu sohaga doir ilm uchun azaldan eng e'tiborli va muhim omillardan hisoblangan. Shu zayilda asar yaratgan mualliflar ikki uslubga amal qilganlar, Ulardan ba'zi birlari, masalan, Ibn Xotim asarini boblarga bo'lgani bois uni tushinish va o'zlashtirish oson. Shuning uchun ham u hadisshunoslik bobida eng yaxshi kitoblardan sanalgan. Boshqa bir guruh mualliflar esa kitoblarni musnadlarga asoslanib tartib berganlar. Ulardan Hofiz Yaqub ibn Shayba al Basriyning illatli musnad tarzidagi yirik asari nihoyasiga yetmay qolgan, agar u oxirigacha tugallanganida 200 jildni tashkil qilgan bo'lar edi. Manbalarda ushbu "Al-Musnad" asarini oqqa ko'chirish uchun mo'ljallangan varoqlarga solish uchun ul zotning uyida 40ta ko'rpa-yostiqliq taxt qilib qo'yilgani aytiladiki, shuning o'ziyoq ushbu kitob naqadar keng qamrovli bo'lganidan dalolat beradi. Imom Buxoriyning jami 24 asari bolganligi haqida ma'lumotlar mavjud. «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari», bu asar ham o'zbek tilida nashr etilgan), «Kitob al-favoyid» («Foydali ashyolar kitobi»), «At-Tarix alka - bir» («Katta tarix»), «At-Tarix al-avsat» («O'rta tarix»), «At-Tarix as-sag'ir» («Kichik tarix») kitoblari shular jumlasidan. Biroq buyuk muhaddis asarlarining hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Imom Buxoriy

⁴ Tahziyb ul-tahziyb, 10-jild, 127-bet

asarlarga juda ko'plab sharhlar yozilgan. Bu hol ulaming ijodi musulmon olamida mashhur bo'lib, diniy ilmlar rivojlanishiga katta hissa qo'shganligidan darak beradi. Imom Buxoriy Samarqandga bora turib, hozirgi Chelak tumani Xartang qishlog'ida vafot etganlar va shu yerda dafn qilinganlar. Musulmon olami, kalom ahli Imom Buxoriyni «Muhaddislar imomi», «Hadis ilmining sultoni», «Hadis ilmi bobida mo'minlar amiri», «Faqihlar sayidi» deb ulug'lagan. 1998-yil oktabr oyida ko'hna Samarqand shahrida buyuk muhaddis tavalludining hijriy- qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi keng nishonlandi. Olim to'g'risida ko'plab ilmiy va ommabop asarlar chop etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Uvatov.Muhaddislar imomi.-T.: "Ma'naviyat", 1998 6 bet
2. U.Uvatov,Buyuk muhaddis,O'zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashiryoti .Toshkent 1998
3. U.Uvatov.Imom al-Buxoriy hayoti. "Sharq" nashiryoti-matba konsernining bosh tahririyati –T.1998

